

**“OLIV NERV FAOLİYATI MAVZUSINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH” MAVZUSINI
O‘QITISHDA FOYDALANILGAN TEXNALOGIYA VA METODLAR
TASNIFI.**

*Q.D.U magistranti: X.E. Usmonov
husanjonusmonov520@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Oliy nerv faoliyati mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik ta’lim metodlari va modellari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘z. VARK, GRASPS, vebinar metod, tatqiqotchilik o‘qitish metodlari.

**КЛАССИФИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕТОДОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ
ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ “ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ
ВЫСШЕЙ НЕРВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ”.**

*ҚДУ.Магистрант: Х.Усманов
husanjonusmonov520@gmail.com*

Аннотация. В данной статье речь пойдет о современных педагогических методах и моделях обучения по теме” Использование современных педагогических технологий в преподавании темы высшей нервной деятельности”.

Ключевое слово. VARK, GRAPS, вебинарный метод, исследовательские методы обучения.

**CLASSIFICATION OF TECHNOLOGY AND METHODS USED IN THE
TEACHING OF THE TOPIC “THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL
TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF THE TOPIC OF HIGHER
NERVOUS ACTIVITY”.**

*Q.D.U graduate student: X.E. Usmanov
husanjonusmonov520@gmail.com*

Annotation. This article will talk about the methods and models of modern pedagogical education in teaching the topic “the use of modern pedagogical technologies in teaching the topic of higher nervous activity”.

Keyword. VARK, GRASPS, webinar method, methods of teaching tattooing.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash sohasidagi global ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatda faol, intellektual salohiyatli, iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash, ularning iqtidorini rivojlantirish orqali belgilangan vazifalarni nostandart vaziyatlarda tezkor hal etish qobiliyatiga ega raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni taqozo etadi.

Pedagogning o'rni va uning vazifalari, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muxim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. 2030-yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat" sifatida e'tirof etilgan. Unda malakali o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik, integrativ bilimlar, o'qitish texnologiyalari, zamonaviy metodlar, ta'lim vositalaridan, uzluksiz ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor berilgan, bu esa o'qituchi yosh avlodga ta'lim va atarbiya berishda jamiyat oldida javobgarligi va ma'suliyatliliigi yanada ortib boraveradi. "Oliy nerv faoliyati mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish" mavzusini o'qitishda VARK, GRASPS va Vebinar metod va modellarni keltirish mumkin.

VARK ta'lim metodi. Bu o'qitish metodi vizual, eshitish, o'qish, yozish va kinestetik o'rganish uslublarini anglatadi. Har bir talaba ma'lumotlarni qaysi bir qobiliyati bilan o'rganishni ta'minlaydi. Ushbu metod orqali talabalar bilim, ko'nikma va malakasini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, talabalarning visual ta'lim vositalari orqali malumotlarni oson o'zlashtirish imkonini beradi [1.15-p].

Tadqiqotchilik o'qitish metodlari. Tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi talabalar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi, talabalar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida talabalar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi, tajribasini egallaydilar [2.26-p].

Vebinar metodi. Bu usulda dars seminar yoki konferentsiya internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan talabalar bilan audio, video (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsada butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bog'lanmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ladi deyish mumkin [3.35-p].

Grant Wiggins va Jey McTighe tomonidan GRASPS modeli fanga olib kirilgan. Grant Wiggins va Jey McTighe GRASPS modeliga quyudagicha tarif bergan: bu

talabalar uchun qiziqarli, dolzarb, muhim va qiyin bo'lgan vazifalarni rejalashtirish, tartibga solish va bajarishda yordam beradigan kuchli baholash modelidir [4.18-p].

Qisqa qilib aytganda, GRASPS ta'lim samaradorligini baholash modeli sifatida qarashimiz mumkin.

GRASPS modelidan quyudagi maqsadlarda foydalanish mumkin[5.20-p]:

- 1.konteksli ta'lim orqali ta'labalarni jalb qilish
- 2.haqiqiy muammo va vaziyatlarga muqobil simulyatsiyalarni taqdim qilish
- 3.talabalar uchun o'quv jarayoni o'tkazish uchun imkoniyatlar yaratish
- 4.talabalarning loyiha faoliyatini baholashga imkon beradi.
- 5.talabalarning o'qish faoliyati va tajribasini rivojlantiradi.

Demak, zamonaviy metod va modellar talabalarning bilish faoliyatiga tasir qilib, ularning bilim, ko'nikma va malakasini rivojlantirishga, o'qitish tizimining rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Fleming, N.D. (2001). *Teaching and Learning Styles: VARK Strategies*. Christchurch, New Zealand: 15-p.
2. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan. 26-p.
3. Moore, M.G. (1989). *“Three types of interaction: Distance Education”*.35-p.
4. Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). *Understanding by Design (2nd ed.)*. ASCD.18-p.
5. Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). *Understanding by Design (2nd ed.)*. ASCD.20-p.